

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

MILLIY BOSH KIYIMLARINING TARIXI VA TADQIQ ETISH MASALALARI

Nurullayeva Zulayho Ravshan qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI tayanch doktorant

zulayho9294@mail.ru

977600229

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy liboslarining bir qismi bo‘lmish, do‘ppilarning shakllanishi tarixiga oid tadqiqotlar va izlanuvchilar haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari bosh kiyimlarning tarixi va turlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: do‘ppi, bosh kiyim, tube, milliy libos, madaniy meros.

ИСТОРИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГОЛОВНЫХ УБОРОВ И ВОПРОСЫ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования и исследователи, посвященные истории формирования тюбетеек, которые являются частью узбекской национальной одежды. Кроме того, приводятся сведения об истории и видах головных уборов.

Ключевые слова: тюбетейка, головной убор, тюбе, национальная одежда, культурное наследие.

THE HISTORY OF NATIONAL HEADWEAR AND ISSUES IN ITS RESEARCH

Abstract: This article examines studies and researchers dedicated to the history of skullcap formation, which is part of Uzbek national dress. Additionally, information is provided on the history and types of headwear.

Keywords: skullcap, headwear, tyube, national dress, cultural heritage.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda xalqimiz tarixini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda tadqiq etish, qadimiy manbalar, milliy boyliklar va qadriyatlarini, madaniy merosimizni tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish respublikamiz madaniy, ma’naviy hayotidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Bu borada ayniqsa milliy va madaniy boyliklarimizni asrab avaylash, ularni muhofazalash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturulamal vazifasini o‘tamoqda[4]. So‘nggi yillarda ayniqsa, an‘anaviy milliy liboslarimiz va milliy bosh kiyimlarimizni targ‘ib qilish hamda ularning tarixini tadqiq qilish borasida muhim ustuvor vazifalar bajarilmoqda. Moddiy madaniyatimizning asosiy ko‘rinishlaridan birini tashkil etuvchi milliy bosh kiyimimiz do‘ppilar - xalqimizning o‘tmishi, milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlarini o‘zida namoyon qiladi. Bosh kiyimi sifatida do‘ppilar tarixi ko‘p asrlarga borib taqaladi. Do‘ppining badiiy qadr-qimmati, kashtalarning bezakli tasvirlari ushbu xalq amaliy san‘ati turining uzoq rivojlanish yo‘lidan dalolat beradi. Do‘ppilarga o‘xshash bosh kiyimlar qadimdan mavjud bo‘lganligi haqida VI–VII asrlarga oid saqlanib qolgan devoriy rasmlar, ilk o‘rta asr terrakota haykallari, tangalar va XV–XVI asrlarga oid miniatyuralar bunga guvohlik beradi[2]. 1920-yillardan boshlab do‘ppilar rang-barang bo‘lib, ularning shakllari o‘zgaradi: uchli, konussimon, yumaloq, to‘rtburchakli va hokazo. Do‘ppi (tatarcha “do‘ppi”- tepa, tepalik) nafaqat o‘zbeklarning, balki markaziy osiyo boshqa xalqlarining ham milliy bosh kiyimidir. Etnograf olim Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи лугати) ga tayangan holda bu so‘z turcha “tube”, “tupe”-(cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma‘nosida ikki variantini “tubetay” va “tuppi”ni keltiradi[7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy liboslarimiz va bosh kiyimlarimiz haqida qadimgi yozma manbalar, jumladan, “Avesto”[1] da, shuningdek, o‘rta asrlarda M.Koshg‘ariy[5], qomusiy olim A.Beruniy va davlat arbobi Zaxiriddin Muhammad Bobur asarlarida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. 30-yillarga kelganda, O‘zbekiston amaliy-bezak san‘ati alohida janr va ko‘rinishlarga bo‘lib o‘rganilgan. A.S.Morozovaning tadqiqotlarida asosan asrimizning 30- yillariga qadar yig‘ilgan materiallar tahlil etilgan. Bosh kiyim va liboslardagi naqshlarning ma‘nolariga katta e‘tibor berilib, 30-yillardan to 80-yillar oralig‘ida amaliy-bezak san‘atiga endigina kirib kelayotgan va keyinchalik keng tarqalgan tematik mavzular esa qisman izohlanadi. Bugungi kungacha fanda etnografiya, milliy liboslar va bosh kiyimlar haqida ko‘plab tadqiqotlar bajarilgan. N.Sodiqovanning “O‘zbek milliy bosh kiyimlari (XIX-XX asrlar)” [7] nomli tadqiqotida XIX asr oxiri va XX asrda urf bo‘lgan an‘anaviy bosh kiyimlar, do‘ppi va ro‘mollar turli viloyatlar kesimida atroflicha o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotda etnolog, o‘lkashunos, arxeolog, san‘atshunos mutaxassislar tomonidan Respublikamizning turli mintaqalariga xos kiyimlarning mahalliy-lokal xususiyatlari, tikilishi va kiyilishidagi o‘ziga xoslik, shuningdek kiyimlar evolyutsiyasi turli manbalar materiallari asosida tahlil etilgan. Bundan tashqari XIX asr oxiri - XX boshlari o‘zbek milliy bosh kiyimlari etnografik nuqtayi nazardan o‘rganilgan adabiyotlarga I.Jabborov, T.A.Abdullaev, S.A.Xasanova, O.A.Suxareva, G.K.Zunnunovalar[8] ham o‘z hissalarini qo‘shishgan. San‘atshunoslik, dizayn, muzeylardagi kiyim-kechak, libo, bosh kiyim kolleksiyalarini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan adabiyot va ilmiy tadqiqotlarga G.A. Pugachenkova[8], S.M.Maxkamova, N.Sodiqova, Z.I.Raximova, R.Ya. Rassudova, G. K.

Yo‘ldasheva, K. Jumaev, A. Ashirov, L. Levteeva, I. Bogoslavskaya[12], K. Tursunaliyev[13], G. K. Xasanbaeva, B.P. Torebaev, D. A. Faxretdinova ilmiy izlanishlarini sanab o‘tish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz do‘ppilarga juda ko‘p ma’no-mazmunni singdirgan bo‘lib, do‘ppidagi biror bir qism, biror bir nuqta unga shunchaki kiritilgan emas. San’atshunos M. Foziliy do‘ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta’minlovchi homila bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do‘ppidagi qalampirmunchoq tasviri do‘ppi egasini turli balo-qazolardan asrovchi magik himoya vositasi bo‘lgan deb ta’kidlaydi. Aynan shu sababga ko‘ra vodiya erkaklarning do‘ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan.

Yurtimizda do‘ppining uch xil shakli bor; kuloh, aroqchin, tusdo‘ppi. Kuloh konussimon erkaklar bosh kiyimi turiga kiradi. Aroqchin esa sharsimon do‘ppi bo‘lib, uni keksalar kiyishadi. Tus do‘ppiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uni chust do‘ppi ham deyishadi, u yassi yuzaki do‘ppilar qatoriga kiradi. Kishilarning yoshiga qarab, o‘tkir uchli, konussimon, yarim doira, chuqur tubli, dumaloq va boshqa shakillarga ajratish mumkin. Do‘ppilar yurtimizning Marg‘ilon, Chust, Toshkent, Shahrisabz va Buxoro kabi hududlarida tayyorlanadi. Ularning shakli va o‘ziga xosligi joylarning tabiati, kishilarning didi, xalq amaliy san’ati usullari yordamida yanada sayqallanib borgan. Masalan, birgina iroqi do‘ppiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda rang-barang gulli novdalar, ular orasidagi yashil, ko‘k tusli qushlarni ko‘rish mumkin. Ularga nazartashlar ekansiz, beixtiyor do‘ppido‘zning mahoratiga qoyil qolasiz. Hunarmand ayollarning go‘zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san’at darajasigacha ko‘targan. Do‘ppilarni bezashda asosan gular, mevalar va qushlardan foydalanishadi. Gullar ko‘pincha yuqorida va yon tomonida tasvirlanadi. Bundan tashqari chevarlar ko‘pchilik naqishlarni, uning rangtusini o‘zgartirib, do‘ppiga alohida husn bag‘ishlagan va bu avloddan avlodga o‘tib, do‘ppilarni kashtalarida betakror naqshlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Do‘ppining tagini va gardishi kizagini ayrim hollarda tikib kashtalangan va mayda qavalab qo‘shib tikilgan. Ayrim ayollar do‘ppisiga mayda munchoq, marjonlar ham taqishgan.

XULOSA

Tahlil qilib aytadigan bo‘lsak, birgina do‘ppining o‘zida biz bilmaga qancha sirlar mavjud ekan. Birgina do‘ppi olam dialektikasi ramzlarini aks ettirgan. Shundayekan o‘zbek do‘ppisiga befarq bo‘lmaslik uni ma’nosini, asl mohiyatini to‘g‘ri tushunish juda muhim. Milliy libosimizning ajralmas qismi bo‘lgan do‘ppilarda xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadimiy urf-odat va an’analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o‘ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy do‘ppilarda yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Ayniqsa, ayollarimizning milliy liboslari masalasida biz xech ikkilanmasdan o‘z milliylik xususiyatlarimizni targ‘ib etishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avesto. Albom-monografiya (SO‘zboshi T.Maxmudovniki). -T.:Sharq., 2021.
2. G‘aybullayeva.Y. Do‘pillar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3.bet
3. Jabborov I. Uzbek xalki etnografiyasi. - T.: O‘Qituvchi, 2018. -149 b
4. Karimova Nodira Qaxramon Qizi Milliy va zamonaviy libos dizaynini yaratishda o‘zbekiston tarixiy – me‘moriy obidalarining o‘rni // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-va-zamonaviy-libos-dizayniniyaratishda-zbekiston-tarihiy-memoriy-obidalarining-rni> (дата обращения: 29.04.2023).
5. Koshg'ariy M. Devoni lug‘otit turk. Uch tomlik (A.Mutalibov tarjimasi). -T.: Fan, 1960-1963-yillar. 3 tomlik. 3-tom. - 467 b
6. Raupova D. “XIX asr oxiri XX asr boshlari uzbek milliy liboslari mintakaviy tiplari” magistrlik dissertatsiyasi T-2018, 6-b
7. Sodiqova N,G‘aybullayeva Y. “O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar”.Toshkent: Sharq.2014.10 bet
8. Zunnunova G. Maxallada yashovchi uzbeklarning an‘anaviy va zamonaviy kiyimlari//Toshkent maxallalari: an‘analar va zamonaviylik. Toshkent, 2020.
9. Бикжанова М.А. Одежда узбечек Ташкента XIX – начала XX в.//Костюм народов Средней Азии. Историко–этнографические очерки.–М.,1979.С.147-148.
10. Богословская И., Левтеева Л. Тюрбетейки Узбекистана XIX-XX веков.–Т., 2006.- С.10, 26, 48-49, 110.
11. Ҳакимов А., Файзиева В. Ўзбекистон Давлат санъат музейи ноёб хазинасидан.–Т.,2014. – С. 60.
12. Пугаченкова Г.А. К Истории паранджи // СЭ. 1962. № 3. С. 191-195.
13. Турсуналиев К. Все цвета радуги. (Тюрбетейки и головные уборы узбеков XIX -XX вв.). -Т.:Фан, 2018